



**INVESTITSION RISKLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY
MEXANIZMLARI: BOSQICHLAR, STRATEGIYALAR VA ILG'OR
YONDASHUVLAR**

Sattarov Baxtiyor Xolbayevich

Oriental Universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada investitsion risklarni boshqarishning zamonaviy bosqichlari va samarali strategiyalari tahlil qilinadi. Risklarni aniqlash, baholash, ustuvorlashtirish va real vaqt rejimida monitoring qilish jarayonlari metodologik va texnologik yondashuvlar asosida bayon etilgan. Monte-Karlo simulyatsiyasi, Value-at-Risk (VaR) va stress-test kabi usullar yordamida loyihalarning moliyaviy barqarorligi matematik asosda baholandi. Raqamli texnologiyalar – sun'iy intellekt, Big Data, real vaqtli dashboards va blokcheyn yechimlarining investitsion xavflarni boshqarishdagi o'rni alohida yoritilgan. Tadqiqot yakunida O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi mumkin bo'lgan milliy risk menejment strategiyasi va institutsional takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: investitsion risklar, risk menejment, Monte-Karlo simulyatsiyasi, Value-at-Risk, risk matritsasi, hedjing, real vaqtli monitoring, SI.

Kirish. Investitsion faoliyat, ayniqsa yirik loyiha tashabbuslarida doimiy noaniqlik va tavakkalchilik bilan bog'liq bo'lgan murakkab tizim hisoblanadi. Global iqtisodiyotda kuzatilayotgan geosiyosiy beqarorlik, valyuta kurslarining o'zgaruvchanligi, infratuzilma izchilligining pastligi kabi omillar investitsion xavflarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasida investitsion muhitni barqarorlashtirish va sarmoyaviy oqimni oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilayotgan bo'lsada, risklarni boshqarish mexanizmlarining yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi loyihalarning samaradorligiga



tahdid solmoqda. Ushbu maqolada investitsion xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish bosqichlari, shuningdek zamonaviy texnologik va strategik yondashuvlar tizimli tarzda yoritiladi.

Metodologiya. Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar qoʻllanildi: risk identifikatsiyasi uchun SWOT tahlili, ekspert suhbatlari, risk reyestrlari va check-listlar; risk baholashda sifat va miqdoriy usullar, ballik tizim asosidagi matritsa; Monte-Karlo simulyatsiyasi, Value-at-Risk (VaR) va stress-testlar asosida matematik tahlil; risklarga nisbatan strategiya tanlash: kamaytirish, transfer, qabul qilish; monitoring va qayta baholash mexanizmlari.

Tahlil va natijalar. Investitsion risklarni boshqarish zamonaviy menejment tizimining ajralmas qismi boʻlib, u loyihalarning barqarorligi, moliyaviy samaradorligi, investorlar ishonchi va umumiy iqtisodiy xavfsizlik darajasiga bevosita taʼsir qiladi. Investitsion faoliyat oʻz mohiyatiga koʻra noaniqlik va xavf bilan tavsiflanadi, shuning uchun har qanday investitsion loyiha boshlanishidan oldin xavflarni aniqlash, tahlil qilish, baholash va ularni boshqarish zarurati mavjud. Ushbu jarayon izchil, tizimli va tamoyillarga asoslangan yondashuvni talab qiladi.

Risk baholash — bu aniqlangan har bir xavf-xatar omilining yuzaga kelish ehtimolligi va keltirishi mumkin boʻlgan salbiy taʼsir kuchini aniqlash orqali ularni ustuvorlik tartibida saralash jarayonidir. Bu bosqich investitsion qaror qabul qilishda hal qiluvchi ahamiyatga ega boʻlib, loyihaning umumiy xavf darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

Baholashning asosiy maqsadi va vazifalariga har bir riskning ziddiyat yuzaga keltirish ehtimolini aniqlash, har bir xavfning loyihaga moliyaviy, operatsion, huquqiy, reputatsion va ekologik taʼsirini tahlil qilish, resurslarni samarali taqsimlash uchun ustuvor risklarni ajratib olish va keyingi bosqich — risklarga qarshi chora-tadbirlar tanlashni ilmiy asoslashdan iborat.



Risk baholash ikki asosiy mezon asosida amalga oshiriladi:

Mezon	Mazmuni
Ehtimollik (P)	Risk yuzaga kelishining statistik yoki ekspertlik bahosiga asoslangan imkon darajasi.
Ta'sir kuchi (I)	Risk yuzaga kelgan taqdirda u keltirishi mumkin bo'lgan salbiy natijalar (zarar, vaqt kechikishi, imijga putur, yuridik jazo) miqyosi.

Bu ikki ko'rsatkich asosida risklar ko'paytma usulida baholanadi:

$$Risk\ darajasi\ (R) = P \times I$$

Baholash usullarini sifat (qualitative) va miqdoriy (quantitative) ga bo'lamiz. Sifat baholash (Qualitative Risk Analysis): Tavsifiy va ekspert yondashuvga asoslanadi va har bir risk ehtimolligi va ta'siri 3 yoki 5 balli shkalada baholanadi.

Ehtimollik	Baholash
5 – Juda yuqori	81–100%
4 – Yuqori	61–80%
3 – O'rta	41–60%
2 – Past	21–40%
1 – Juda past	0–20%

Ta'sir kuchi	Baholash
5 – Halokatli	Loyihaning to'xtashi, bankrotlik
4 – Jiddiy	Moliyaviy zarar 30% dan yuqori
3 – O'rtacha	Muddat cho'zilishi, 10–30% zarar
2 – Engil	Mahsuldorlikka qisman ta'sir
1 – Ahamsiz	Tuzatish imkoni mavjud, yengil



Bu qiymatlar Risk Matritsasi (Risk Matrix) ko‘rinishida joylashtiriladi. Natijada yuqori (qizil), o‘rta (sariq) va past (yashil) risk zonalarini aniqlanadi.

Miqdoriy baholash (Quantitative Risk Analysis) esa matematik, statistik va simulyatsion usullarga asoslanadi. Monte-Karlo simulyatsiyasi, Value-at-Risk (VaR), NPVga asoslangan ssenariy tahlili ishlatiladi.

Misol uchun, 100 ming AQSh dollarlik investitsiya loyihasi uchun: valyuta riski ehtimolligi – 40%, ta’sir – 20 ming \$ yo‘qotish. Foiz stavkasi riski ehtimolligi – 60%, ta’sir – 15 ming \$.

$$\text{Kutilayotgan umumiy risk qiymati} = 0.4 \times 20000 + 0.6 \times 15000 = 14\,000 \$.$$

Risklarni baholash — bu tavakkalchilik darajasini aniqlash orqali loyihaning barqarorligi va rentabelligi haqida asosli xulosa chiqarishga xizmat qiladigan asosiy bosqichdir. Ehtimollik va ta’sir kuchi asosida risklar ustuvorlashtiriladi, resurslar samarali taqsimlanadi va investitsion qarorlar yanada aniq, asosli qabul qilinadi. O‘zbekiston sharoitida, ayniqsa yirik infratuzilma va sanoat loyihalarida ushbu bosqichni real statistik, sektor kesimidagi xavflar va hududiy sharoit asosida baholash orqali risklarni boshqarishda yuqori natijalarga erishish mumkin.



1-rasm. Risklarni boshqarish strategiyasini tanlash



Risklarni baholash natijalariga qarab ustuvorlikni belgilash — bu tavakkal darajasini real moliyaviy va operatsion kontekstda tahlil qilish, eng xavfli zonalarini aniqlash va ularni boshqarishda resurslar, vaqt va e'tiborni to'g'ri yo'naltirish jarayonidir. Bu bosqich orqali loyihaning umumiy xavfsizlik strategiyasi, investitsion qarorlar va moliyaviy himoya mexanizmlari aniq va asosli shakllanadi.

Investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida aniqlangan va baholangan risklarga qanday munosabatda bo'lishni tanlash – bu qaror qabul qilish strategik bosqichi bo'lib, butun loyiha istiqbolini belgilab beradi. Ushbu bosqichda maqsad – aniqlangan har bir xavf omiliga nisbatan eng mos, samarali, iqtisodiy asosli boshqaruv usulini tanlashdir.

Risklarni boshqarish bo'yicha tanlanadigan strategiyalar odatda quyidagi asosiy to'rt turga bo'linadi: oldini olish, kamaytirish, transfer qilish va qabul qilish. Har bir yondashuv tanlanayotgan loyihaning moliyaviy sig'imi, vaqt resursi, tashqi muhit barqarorligi va tashkilotning riskga nisbatan tolerantligiga bog'liq bo'ladi.

Xedjerlash vositalari haqida gapirilganda, forvard shartnomalar, fyucherslar, opsiyonlar va svop bitimlari eng ko'p tarqagan instrumentlari hisoblanadi. Forvard shartnomalari — bu ikki tomon o'rtasida kelajakda, oldindan kelishilgan sanada, ma'lum bir aktivni (valyutani, tovarni, moliyaviy instrumentni) belgilangan narxda sotib olish yoki sotish majburiyatini oladigan shartnoma shaklidir. Bu shartnoma birjada emas, balki to'g'ridan-to'g'ri tomonlar o'rtasida (over-the-counter, OTC) tuziladi. Farqli jihati shundaki, bu shartnoma individual loyihaga moslashtirilgan, moslashuvchan, va odatda xedjing strategiyasining birinchi bosqichida qo'llaniladi.

MIGA (Ko'p tomonlama investitsiya kafolat agentligi) — bu Jahon banki guruhiga kiruvchi xalqaro moliyaviy tashkilot bo'lib, u rivojlanayotgan davlatlarga yo'naltirilgan xususiy investitsiyalarni siyosiy va regulyator risklardan sug'urtalash orqali qo'llab-quvvatlaydi. 1988-yilda tashkil etilgan MIGA ning asosiy vazifasi: “Xususiy investorlar, ayniqsa xorijiy sarmoyadorlar uchun siyosiy tavakkalchiliklarni kamaytirish orqali,



rivojlanayotgan mamlakatlarga barqaror investitsiya oqimini rag‘batlantirish.” Ma’lumot o‘rnida aytish joizki 1988 yildan buyon faoliyat olib borayotga ushbu tashkilot shu kungacha 123 davlatda 1030 dan ortiq layihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun 84,5 milliard AQSh dollariga teng kafolatlarni tadqimetga.¹

MIGA shtab-kvartirasi Vashington, AQShda joylashgan bo‘lib, uning xizmatlaridan 180 dan ortiq a‘zo davlatlar foydalanadi. MIGA asosan quyidagi siyosiy risklarni sug‘urtalaydi:

Sug‘urta turi	Ta’rif
Ekspropriatsiya	Hukumat tomonidan investitsiya aktivlarini musodara qilish, milliylashtirish
Transfer risk (valyuta cheklovi)	Investordan foyda yoki kapitalni chiqib ketishiga ruxsat berilmasligi
Siyosiy zo‘ravonlik	Urush, fuqarolik to‘qnashuvi, terrorizm yoki harbiy inqiloblardan zarar
Shartnomaga rioya qilmaslik	Davlat bilan tuzilgan shartnomalarning buzilishi
Bozor obro‘cini yo‘qotish	Nomaqbul siyosiy intervensiya sababli investor imijiga zarar yetishi

Bu kafolatlar odatda 15 yilgacha bo‘lgan muddatga beriladi va loyihaning o‘lchamiga qarab 10 mln AQSh dollaridan 250 mln dollargacha bo‘lgan risklar qamrab olinadi. MIGA 2012-yildan boshlab O‘zbekiston bilan ishlaydi va energetika, transport, moliya sektorlarida ayrim yirik loyihalarni siyosiy risklardan himoya qilgan. 2021-yilda “MIGA guarantee” doirasida xalqaro banklar tomonidan UzAuto Motors va boshqa davlat korxonalariga ajratilgan kreditlar siyosiy risklardan himoyalangan. Yangi investitsion siyosatga ko‘ra,

¹ MIGA hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. <https://www.miga.org/2024-annual-report/financial-highlights>



2023–2026 yillarda O‘zbekiston hukumati MIGA bilan hamkorlikni "yashil energetika, logistika va raqamli infratuzilma" sohalariga yo‘naltirishni rejalashtirmoqda.² Umuman olganda, MIGA – bu xalqaro sarmoyadorlar uchun siyosiy va noaniqlik sharoitida ishonchli moliyaviy kafolat beruvchi strategik institutdir. U investitsion loyihalarning xavfsizligini ta‘minlash, rivojlanayotgan mamlakatlar — jumladan O‘zbekiston — uchun barqaror sarmoya oqimini ta‘minlash vositasi hisoblanadi. Ayniqsa hozirgi geosiyosiy beqarorlik, valyuta konvertatsiyasi va shartnomaviy xavflar ortib borayotgan davrda MIGA kafolatlari nafaqat foydali, balki zarur xavfsizlik tarmog‘i sifatida e‘tirof etiladi.

OPIC (Overseas Private Investment Corporation) – 1971-yilda tashkil etilgan AQSh hukumati agentligi bo‘lib, xususiy amerikalik investorlarning rivojlanayotgan mamlakatlardagi loyihalarini siyosiy, iqtisodiy va boshqaruv risklardan sug‘urtalash, shuningdek, ularni moliyalashtirish maqsadida yaratilgan. 2019-yil 20-dekabrda OPIC rasmiy ravishda DFC – U.S. International Development Finance Corporation nomi bilan qayta tashkil etildi. Bu agentlik OPIC faoliyatining vorisi hisoblanadi, ammo uning vakolati, moliyaviy quvvati va global rolini sezilarli darajada kengaytirgan. Ma‘lumot o‘rniada shu aytish joizki, 49.38 milliard AQSh dollar miqdoridainvestitsiya kiritishga ulgurgan va DFCning asos solinishidan tortib bugungi kungacha 555 million AQSh dollarni mamlakatlardagi defitsitni qisqartirish uchun sarf qilgan.³ DFC – bu AQShning “rivojlanayotgan mamlakatlardagi xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiy taraqqiyot, barqarorlik va geoiqtisodiy ta’sirni oshirish” strategiyasining moliyaviy ustunidir.

U quyidagi vositalar orqali faoliyat yuritadi:

² URL: <https://www.miga.org/project/trade-finance-guarantee-facility-1>

³ DFC hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. <https://www.dfc.gov/>



Vosita turi	Tavsifi
Siyosiy risk sug'urtasi	Milliylashtirish, valyuta cheklovlari, urush, tartibsizliklar va hukumat bilan nizolarni qoplaydi
Moliyalashtirish	Uzoq muddatli kreditlar, subordinatsiyalangan qarzlar, kafolatlar beradi
Sarmoyaviy kapital (equity)	Loyihalarga to'g'ridan-to'g'ri aksiyador sifatida investitsiya qiladi
Texnik yordam va konsalting	Loyiha barqarorligi, ESG talablariga muvofiqlik, biznes modeli ekspertizasi
Ijtimoiy va yashil loyihalarni qo'llab-quvvatlash	Gender tenglik, iqlim o'zgarishi, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi sohasiga alohida e'tibor

DFC orqali sarmoya qilinayotgan loyihalar o'z ichiga quyidagilarni oladi: aiyosiy beqarorlikka ega davlatlarda loyihalarni siyosiy risklardan kafolatlash (ekspropriatsiya, valuta cheklovi, urushlar); rivojlanayotgan davlatlar markaziy hukumati bilan tuzilgan shartnomalarni mustahkamlash; xalqaro moliya institutlarining (IMF, WB, EBRD) yondashuvlari bilan muvofiqlikni ta'minlash. Masalan, DFC Hindistonda 1,5 mlrd AQSh dollarlik quyosh energiyasi loyihasini siyosiy risklardan sug'urtalagan yoki Ukrainada AQSh xususiy banklari ishtirokidagi infratuzilmaviy kreditlarni kafolatlagan.

Hozircha O'zbekiston DFC bilan to'g'ridan-to'g'ri yirik hamkorlik boshlamagan bo'lsa-da, 2020-yilgi AQSh-O'zbekiston strategik muloqotida DFC bilan kelgusida hamkorlik masalalari muhokama qilingan.⁴ Siyosiy barqarorlik, ochiq valyuta siyosati, erkin investitsiya muhiti DFC uchun asosiy mezonlar bo'lib, O'zbekiston ularni bosqichma-bosqich joriy etmoqda. Energetika, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash va raqamli infratuzilma sohalari DFC ishtiroki uchun potensial yo'nalishlar sifatida belgilanmoqda.

⁴ URL: <https://www.dfc.gov/media/press-releases/dfc-and-uzbekistan-joint-statement-cooperation-investment-and-infrastructure>



O'zbekiston sharoitida investitsion risklarni boshqarish tizimi hali to'laqonli shakllanmagan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, investitsion xavfsizlikni ta'minlash uchun risklarni identifikatsiya qilish, baholash va real vaqtli monitoring qilish tizimlari zarur. Zamonaviy texnologiyalar (AI, Big Data, dashboards) bu jarayonda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Kadrlar salohiyatini oshirish, xalqaro amaliyotni moslashtirish va sug'urta bozorini rivojlantirish orqali risklarga nisbatan tizimli yondashuv shakllanishi mumkin.

Xulosa o'rnida Investitsion xavflarni kamaytirish vositasi sifatida xedjing, forvard, fyuchers, opsiya va svop shartnomalari bo'yicha yondashuvlar batafsil ochib berildi. Bu moliyaviy instrumentlar korxonaga valyuta, foiz stavkasi va bozor tebranishlariga nisbatan moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi.

Shuningdek, risklarni sug'urtalash va diversifikatsiyalash strategiyalari orqali korxonalar tavakkallarni to'g'ri taqsimlaydi va zarur hollarda uchinchi tomon zimmasiga o'tkazadi. MIGA va DFC kabi xalqaro institutlar ishtirokidagi siyosiy xavflardan himoya qilish mexanizmlari, ayniqsa O'zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida milliy investitsion risk menejment tizimini shakllantirishda quyidagilar zarur:

- sektor va hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda risk xaritalari tuzish;
- raqamli monitoring tizimlarini joriy etish;
- institutsional islohotlar orqali huquqiy himoyani kuchaytirish;
- sug'urta va derivativ vositalar bozorini rivojlantirish.

Bu yondashuvlar investitsiyaviy xavfsizlikni ta'minlash, sarmoya jalb qilish darajasini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda strategik ahamiyat kasb etadi.



Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Markowitz H. Portfolio Selection: Efficient Diversification of Investments. – New York: Wiley, 1959.
2. Sharpe W.F. Capital Asset Prices: A Theory of Market Equilibrium. – The Journal of Finance, 1964.
3. Abdixalilov Abdig'oppar Abdisattor o'g'li "Investitsion loyihalarni amalga oshirishda risklarni boshqarish nazariyasi", Yangi O'zbekiston, Yangi Tadqiqotlar Jurnal, Vol. 1 No. 1 (2024)
4. Ziyatov, B. (2025). Investitsion loyihalarni moliyalashtirishda risklarni minimallashtirish masalalari. Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения, 4(4), 32–34. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/zdaf/article/view/78002>
5. K.U. Sharifxodjayeva, A.X. Islamkulov, B.K. Sattarov, O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, TMI, T: «Iqtisod-Moliya», 2017. - 160 b.
6. Hull, J.C., 2022. Options, Futures and Other Derivatives. 10th ed. Boston: Pearson Education.
7. COSO, 2017. Enterprise Risk Management – Integrating with Strategy and Performance. Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission.
8. MIGA (Multilateral Investment Guarantee Agency). Annual Report, 2023. – www.miga.org
9. DFC (U.S. International Development Finance Corporation). Project Risk Evaluation Framework, 2023.